O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 6.03.2(575.1)

FARMONOV FAZLIDDIN FAXRIDDIN O`G`LI

LOGISTIK YONDASHUVNI JORIY ETISHDA KORXONA OMBORI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

70411701 – "Logistika" mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

TOSHKENT – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Biznes boshqaruvi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar _____ **i.f.d., dots. E.A. Kamalov**

Kafedra mudiri _____ **i.f.d., prof. U.V. Gafurov**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani _____ **i.f.d., prof. J.I.Karimqulov**

Men, _____ (F.I.Sh)

ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

МАГИСТРЛИК ДИССЕРТАЦИЯСИ ДАСТЛАБКИ ҲИМОЯСИ
_____- СОНЛИ БАЁННОМАСИ

2025 йил "11" апрель

Kechki ta`lim va факультети Магистратура босқичи 2-курс
"Magistratura Logistika
" мутахассислиги MML-01 -гуруҳи талабаси Farmonov
Farliddin Faxriddin ōğli. нинг
" Logistik yondashuvni joriy etishda korxona ombori faoliyati samaradorligini oshirish
"
мавзусидаги магистрлик диссертациясининг дастлабки ҳимояси натижаларига кўра қуйидаги камчиликлар қайд этилди:

Biz nechta imloviy xatolarga yōl qōyilgan, jadvallar soni kōrsatib ketgan, rasmlarga nom qōyilmagan,

Магистрлик диссертацияси юзасидан хулоса (КИМКда ҳимояга **тавсия этилади/тавсия этилмайди**) _____

Комиссия раиси: N. Safarova – кафедра мудири _____

Комиссия аъзолари: F. Xōjayeva – _____

A. Yuldashev – _____

D. Qosimova – _____

_____ _____

SH. Nazullayev – котиб _____

Изох: Дастлабки ҳимояга киришда талабанинг магистрлик диссертацияси, плагиатга текширилганлиги, илмий раҳбар хулосаси, ички тақризчиларнинг тақризлари, камида 2 та илмий мақоласи (тезис) нусхалари бўлиши талаб этилади.

“Logistik yondashuvni joriy etishda korxona ombori faoliyati samaradorligini oshirish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining

ANNOTATSIYASI

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida logistik yondashuvni joriy etishda korxona ombori faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy amaliy va takomillashtirishga doir jihatlari o`rganilgan. Tadqiqot obyekti sifatida "Orient Logistics Center JV LLC" kompaniyasining logistik omborxona faoliyati, zamonaviy ombor infratuzilmasi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (WMS) hamda 3PL xizmatlarining samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad — logistik omborxonalar faoliyatini optimallashtirishga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, statistik guruhlash hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, logistik yondashuvni omborxona boshqaruviga tatbiq etish orqali operatsion samaradorlik sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Xususan, 3PL xizmatlari yordamida tashqi mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lami kengaygan, xarajatlar optimallashtirilgan, yuk aylanish tezligi oshgan va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilangan. Tadqiqotda ilg‘or xorijiy tajriba asosida O‘zbekistondagi logistik omborxona tizimini modernizatsiya qilish yo‘llari asoslab berilgan. Orient Logistics kompaniyasining tajribasi esa boshqa logistik va ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun namunaviy model sifatida xizmat qilishi mumkin. Ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish mahsulot aylanishini tezlashtiradi, turg‘un zaxiralarni kamaytiradi, xodimlar mehnatini yengillashtiradi va operatsion xarajatlarni 15–25% gacha qisqartirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati logistik omborxonalar faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim ko‘rsatkichlarni belgilaydi. Nazariy ahamiyati shundan iboratki, u logistik omborxonalar faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o`rganadi. Tadqiqot xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish orqali iqtisodiyotda logistik omborxonalarning rolini kengroq yoritishga xizmat qiladi.

ABSTRACT

of the master's thesis on the topic "Improving the efficiency of the enterprise warehouse when implementing a logistics approach"

This master's thesis studies the theoretical, practical and improvement aspects of increasing the efficiency of the enterprise's warehouse activities when implementing a logistics approach. The object of the research is the analysis of the logistics warehouse activities of the company "Orient Logistics Center JV LLC", the modern warehouse infrastructure and the efficiency of the automated management system (WMS) and 3PL services. The main goal of the research is to identify factors affecting the optimization of the activities of logistics warehouses, analyze existing problems and develop practical recommendations for their elimination. The research process used comparative analysis, structural analysis, statistical grouping and systematic approach methods. According to the results obtained, it was found that the implementation of the logistics approach to warehouse management significantly increased operational efficiency. In particular, with the help of 3PL services, the range of services provided to external customers has expanded, costs have been optimized, cargo turnover has increased, and the quality of customer service has improved. The study substantiates ways to modernize the logistics warehouse system in Uzbekistan based on advanced foreign experience. The experience of Orient Logistics can serve as a model for other logistics and manufacturing enterprises. The implementation of this approach in practice accelerates product turnover, reduces fixed stocks, simplifies staff work, and allows reducing operating costs by 15–25%. The theoretical and practical significance of the research results determines important indicators for increasing the efficiency of logistics warehouses. The theoretical significance lies in the fact that it studies the use of modern technologies in the development of logistics warehouses. The study serves to shed more light on the role of logistics warehouses in the economy through an analysis of the experience of foreign countries.

Mundarija

KIRISH.....3

I BOB. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMBORXONA XIZMATI KO`RSATISHNING NAZARIY ASOSLAR.....8

1.1. Ombor faoliyatining logistikadagi roli va ahamiyati 8

1.2. Logistik omborlarni tashkil etishning jahon tajribasi va uni mamlakatimizda qo`llash 19

1.3. O`zbekiston Respublikasida logistik omborlar faoliyatini rivojlantirish va uning oldidagi turgan muammolar.....24

Birinchi bob bo`yicha xulosa.....32

II BOB. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMBOR XIZMATI KO'RSATISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNING IQTISODIY TAHLILI.....33

2.1. Orient logistics center korxonasining ombor faoliyatini samaradorligini baholash usullari 33

2.2. Ombor zaxiralarini boshqarish va optimallashtirish usullari.....41

2.3. Ombor faoliyatining samaradorligini oshirishning analitik yondashuvlari 46

Ikkinchi bob bo`yicha xulosa.....52

III BOB. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LOGISTIK OMBORLAR FAOLIYATI NIRIVOJLANTIRISH YO`LLARI.....53

3.1. Ombor faoliyatining rivojlantirish yo'llari va mezonlari.....53

3.2. O`zbekiston Respublikasida omborxona xizmatini rivojlantirish va takomillashtirish bo`yicha takliflar.....61

3.3. Logistik yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirgan xorijiy korxonalar tajribasi.....66

Uchinchi bob bo`yicha xulosa.....72

XULOSA.....73

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....75

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Hozirgi kunda rivojlanyotgan mamlakatimizda umuman logistika sohasi va uning tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Ombor tizimining ahamiyati esa kundan kunga ortib bormoqda. Chunki olib kelinadigan mahsulotlar iste`molchi qo`liga yetib borguncha albatta ma`lum vaqt davomida saqlanib turishi, uning nazoratida muhim rol o`ynaydi. Ombor turlari olib kiriladigan mahsulot turiga qarab aniqlanadi. Bugungi kunda bo`layotgan katta o`zgarishlar logistika sohasida ham salmoqli o`rin egallamay qo`ymaydi. Ombor infratuzilmasining mahalliy darajasida omborlarning joylashishi va ishlashi yuk tashish va sanoat zonalari, sanoat korxonalari va transportning umumiy samaradorligiga sezilarli darajada ta`sir qiladi. Ishlab chiqarish darajasida ular korxonalarda ishlab chiqarishning asosiy jarayonlarining umumiy ritmi va tashkil etilishiga, ichki va tashqi transportning joylashishi va ishlashiga, sanoat mahsulotlari narxiga va ishlab chiqarish samaradorligining boshqa ko`rsatkichlariga ta`sir qiladi.

Omborxona logistikasini rivojlantirish O‘zbekiston uchun bugungi kunda juda dolzarb masala hisoblanadi. Bunga sabablardan biri tovar aylanishi hajmining ortishidir. O‘zbekistonda ichki iste'mol va eksport-import hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. 2023-yilda tashqi savdo aylanmasi 62 milliard dollardan oshdi, bu esa tovarlarni vaqtincha saqlash, saralash va tarqatish bo‘yicha omborxona xizmatlariga ehtiyojni keskin oshirdi. Shu bilan birga elektron tijorat tez sur’atlar bilan rivojlanayotgani ham zamonaviy omborxona tizimlarini talab qilmoqda. Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish uchun tez, ishonchli va samarali ta’minot zanjiri zarur. Omborxona logistikasining rivoji esa mahsulot yetkazib berish muddatini qisqartiradi, xarajatlarni kamaytiradi va xizmat sifatini oshiradi. Ayni vaqtda O‘zbekistonda mavjud omborlarning aksariyati eskirgan, xalqaro standartlarga javob bermaydi. A sinf omborlar ulushi atigi 20–25% atrofida[1]. Issiqlik

[1] Development of Warehouse Real Estate in Uzbekistan: A New Stage in the Logistics Market. allcargo.market